SO’NGI QO’NG’IROQ

Tadbir ssenariysi

1-boshlovchi: ***Assalom ona yurt, ey ona vatan,***
Assalom ey samo charag’on osmon.
Bosh egaman ta’zim qilib ey ona xalqim,
Assalom ey nurga to’lgan xur O’zbekiston

2-boshlovchi: Assalomu alaykum aziz mehmonlar, mehri daryo ustozlar, qalbi otash ota-onalar, hamda qadrli o’quvchilar! Mana bugun biz maktabni tamomlab so’nggi qo’ng’iroq kechasini nishonlayotgan ekanmiz kechamizga xush kelibsiz.

1-boshlovchi: Mana 9 yildirki, maktabimizda ona bag’rida yashayotgandek his qildik. Qo’limizga qalam ushlashni ham, o’qishni ham, yozishni ham, hatto o’z ismimizni to’g’ri talaffuz qilishni ham bilmay shu dargoh ostonasiga qadam qo’yganimizda bizlarni onamizdek o’z quchog’iga olgan Sobirova Saidaxon , Vahobova Irodaxon ustozlarimizga cheksiz minnaddorchiligimizni bildiramiz.

2-boshlovchi: : Umr deb atalmish cheksiz ummonda bir zot yashaydi, ul zot sham kabi butun olamga ziyo taratadi, kamtarin, xokisor bu zotlar ustozlardir!

1-boshlovchi: Ayrilgim kelmaydi munis maktabdan,
Ko'nglimga yoqdiku abadiy chiroq.
Ko'zimni ochgum yo'q o'shal ovtobdan,
Chalinmay turaqol so'nggi qo'ng'iroq.

2-boshlovchi: Zor yig'lar qizlar, sinfdoshlarim,
Partaga bosh qo'yib ko'z yoshi munchoq.
Yashirgim kelmaydi men ham yoshlarim,
Chalinmay tura qol so'ngi qo'ng'iroq.

1-boshlovchi: Mehribon ustozlar sizlarga tasonnolar aytgim keladi, qalbingiz mehru-muhabbatga, ilmu-ma'rifatga to'la. 9 yil bizning injiqliklarimizga, sho'xliklarimizga sabr-toqat bilan chidaganlaring bizlarni ilmu-ma'rifat nuridan bahramand etganlaring uchun sinfimiz o'quvchilari o'z minnatdorchiliklarini bildirishadi.

2-boshlovchi: Marhamad qabul eting so'z navbatini _____ bersak.

1-boshlovchi: Endi esa maktab davrini eslab Masturaxon ijrosidagi "MAKTAB" qo'shig'iga navbatni beramiz.

2-boshlovchi: Dilda muhabbatning parvarishiga,
Farhod-u Shirindan oldimku saboq.
Gul topdim shu yerda ko'ngil qulfiga,
Chalinmay tura qol so'nggi qo'ng'iroq.

1-boshlovchi: Axir partalarda qo'sh nomimiz bor,
O'yib yozdim men o'yinqaroq.
Yonma-yon qo'sh jonimiz bor,
Chalinmay tura qol so'nggi qo'ng'iroq.

2-boshlovchi: RISOLATPARI, qani endi davraga MAHFUZAXON va HILOLAXONni taklif qilamiz. *"MUSTAHZOD"*

2-boshlovchi: Buyukdir u lek buyukligin,
O'zi sezmay yashagan inson.
Qalbida nur balqir hidoyat,
Ruhda yonar e'tiqod imon

1-boshlovchi: Men shogirtlar nomidan so'zlab,
Olqish aytay sizga ustozlar.
Ta'riflashga so'z topa olmay,
Boshim egib etaman ta'zim.

2-boshlovchi: MASTURAXON she'riyatimizni yakunlab navbatni yigitlarimiz ijrosidagi ko'ngilochar *"QVZ"* ***ga bersak.***

1-boshlovchi: Ushbu tayyorlagan nomerimizni sinfdoshlar va ustozlarga tabrik sifatida yo'llaymiz.Davraga sinfimizning go'zal qizlarini taklif etamiz. *"INJU"*

2-boshlovchi: Ilk bora bir shirin hislar to'lqini,
Bo'ldimku ketgum yo'q ko'ngil hafaroq.
Yo'qotib qo'yishdan qo'rqaman uni
Chalinmay tura qol so'ngi qo'ng'iroq.

1-boshlovchi: Nelar kutmoqda bizlarni hali,
Muhabbat, sevinchmi, baxtmi yo firoq.

Nahot tark etmoqlik yetdi mahali?
Chalinmay turaqol so'ngi qo'ng'iroq.

2-boshlovchi: RISOLATPARI, keling endi navbatni raqsga beramiz. *"LOVEY-DOVEY"*

1-boshlovchi:endi navbat duetga! *"BOR YOKI YO'Q"*

2-boshlovchi: Partalar oralab o'tadi umr,
O'chirib qoralab o'tadi umr.
Bag'rini poralab o'tadi umr,
Ajib hayoti bor o'qituvchining

1-boshlovchi: Uzatsa qo'llari osmonga yetar,
Yo'llari yulduzlar oralab ketar.
Ko'nglini kamolot mulkiga eltar,
Ajib hayoti bor o'qituvchining.

2-boshlovchi: Endigi navbatni qizlarimiz ijrosidagi raqsga beramiz. Marhamad! *"NUMBER 9"*

1-boshlovchi: Keling MASTURAXON, endi davraga yigitlarimizni taklif qilsakda, ularning raqsini tomosha qilsak.

"HINDCHA"

2-boshlovchi: JAVOHIRBEK ijrosidagi qo'shiqnini ustozlar va onalarimizga tabrik sifatida yo'llaymiz. *"ONAJON"*

1-boshlovchi: Oyning qarshisida o'nlab yulduzlar,
Dars tinglar edik biz ayriliq yiroq.
Buncha tez o'tdiya kecha kunduzlar,
Chalinmay tura qol so'nggi qo'ng'iroq.

2-boshlovchi: Endigi navbatni qizlarimizga beramiz.”HINDCHA”

1-boshlovchi: Endigi navbat sho’x yigitlarimizga! “QVZ”

2-boshlovchi: Xayr maktab, xayr ustozlar,
Endi sizdan ketamiz yiroq.
Orzularga etib parvozlar,
Chalinmoqda so’ngi qo’ng’iroq

1-boshlovchi: Hazrat Navoiyu, Muhammad Bobur,
Hattoki hoqonlar qilganlar ta’zim.
Bu foniy dunyoda yashovchi har bir,
Inson farzandiga ustoz muallim.

2-boshlovchi: Sizni gullar bilan kutgali keldim,
Ulug’bek yo’lini tutgali keldim.
Ulug’ ayyom bugun aziz muallim,
Bayramda hushnud bo’lgin muallim.

HAPPY END